



NASIRIDDIN TUSIYNING INSON RUHIYATI HAQIDAGI FIKRLARI

TDSHU, “Sharq falsafasi va germanevtika” kafedrası o‘qituvchisi

Abduvaxobova Gulsara Akromjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIII asrda Eronda faoliyat olib brogan Nasiriddin Tusiyning inson ruhiyati va unga oid kasalliklar haqidagi fikrlari tahlil qilingan. Uning inson ruhiyati haqidagi fikrlari o‘zining mashhur asari hisoblangan “Axloqi Nosiriy” nomli asari asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Nasiriddin Tusi, “Axloqi Nosiriy”, fazilat, razilat, g‘azab, ruh salomatligi, hasad, tabobat.

Аннотация: В данной статье анализируются взгляды Насируддина Туси, работавшего в Иране в XIII веке, на человеческую психику и связанные с ней заболевания. Его взгляды на человеческую психику рассматриваются на основе его знаменитого труда «Ахлок-и Насири».

Ключевые слова: Насириддин Туси, «Ахлок-и Насири», добродетель, порочность, гнев, духовное здоровье, зависть, медицина.

Abstract: This article analyzes the views of Nasir al-Din al-Tusi, who worked in Iran in the 13th century, on the human psyche and related diseases. His thoughts on the human psyche are considered based on his famous work "Ethics of Nasiri".

Keywords: Nasiriddin Tusi, "Ethics of Nasiri", virtue, vice, anger, spiritual health, envy, medicine.

IX-XV asrlarda faoliyat olib borgan olimlar orasida ko‘plab fanlarda haligacha ulkan obro‘ga ega hisoblanuvchi ensiklopedik olim Abu Ja‘far Muhammad ibn Muhammad Nasiriddin at-Tusi bo‘lib, (1201-1274) – u XIII asr fors matematigi va astronomi, Kamoliddin ibn Yunusning shogirdi, o‘ta serqirra olim, falsafa, jo‘g‘rofiya, musiqa, optika, tibbiyot, minerologiyaga oid asarlar muallifi hisoblanadi. Faylasuf yunon ilmi bilimdoni bo‘lgan, Yevklid, Arximed, Avtolik, Feodosiy, Menelay, Apolloniy, Aristarx, Gipsikl, Ptolomeylarning asarlarini sharhlagan. Ayniqsa, uning “Axloqi Nosiriy” asari hozirda ham ko‘plab tadqiqotchilarni diqqat-e’tiboridan chetda qolmayapti. Mutafakkirning mazkur asari





nafaqat ijtimoiy-axloqiy masalalarda, balki tabiiy-ilmiy masalalarda ham ahamiyatli hisoblanadi. Asarda yozuvchi maqsadga yetish uchun avvalo o'zlikni anglash zarurligini ta'kidlaydi. Asarni o'qigan kishi hayotning mohiyatini va mazmunini anglaydi. Uni o'qigan har qanday kishining dunyoqarashi sezilarli darajada yuksaladi. Bundan tashqari muallif "Axloqi Nosiriy" asarida yana ko'plab masalalarga to'xtalib o'tadi. Jumladan, tabobat ilmi, ruhiyat haqidagi bilimlar haqida ham qimmatli fikrlarni bildirib o'tadi. Shunday yo'l bilan avval qabih razilligini daf' qilish kerakki, uni bartaraf etilishi ma'qul ish bo'ladi. Negaki, unda shak-shubhani aralashuviga imkon qolmaydi va shu narsa ma'lum bo'ladiki, fasod va buzilishdan kelib chiqqan dard to'xtatiladi. Xoh diniy ishlarda bo'lsin, xoh dunyoviy ishlarda bo'lsin shuni anglamoq kerakki, uni to'la tasavvurda aks ettirish kerak. Demak, aqliy iroda bilan undan tashqariga qochish lozim. Agar maqsadga erishilsa, bu yaxshi, aks holda, razilat tug'dirgan narsani fazilatni davom ettirish yo'li bilan bartaraf qilmoq lozim bo'ladi. Demak, o'sha quvvatga taalluqli faoliyatni afzal darajada takrorlash bilan oliyjanob yo'lda mubolag'aga ham bel bog'lash mumkin bo'ladi. Bunday davolashlarning iloji tabiblarda, jumladan, yeyish va ichishdan kelib chiqqanligi aniqlanadi. Agar bunday turdagi muolaja bilan kasallik yo'qolsa, nafsni o'zgartirish uchun tanbeh va malomatlarini fikr yo'li bilan ham, gapirish yo'li bilan ham va amal yo'li bilan ham chorasi ko'riladi. Agar bunday choralar kifoya qilmasa, maqsadga ma'qul darajada erishish uchun hayvoniy ikki quvvatdan birini muvozanatga keltirish uchun, ya'ni g'azab va shahvatni iste'molga kiritib, boshqa quvvatlarni barorbarlashtirish va tinchlantirishga harakat qiladilar. Negaki, qachonki, ulardan biri g'olib chiqsa, uning sohibi mag'lub bo'ladi¹. O'z tabiatining aslida shahvat quvvatining foydasi bo'lganidek, shaxsning tayanchi va turiga qarab, g'azab quvvatining foydasi shahvat suratining kasri bo'ladi, negaki, ular barobar bo'ladilar. Nutq quvvatining tozalash imkoniyati bo'ladi. Tabiblar oldida bunday darajadagi dardlarni davolash iloji o'z-o'zidan kelib chiqadi. Agar shu tariqada ham kasal yo'qolmasa, razilatning mustahkamligi qat'iy bo'ladi.

¹ Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. –Б.153.





Demak, bunday razilatning sababini qidirib topishda boshqa usullarni qo'llash lozim bo'ladiki, o'sha razilatga qarama-qarshi bo'lsin. Uni bo'ysundirish uchun boshqa choralar izlash lozim bo'ladi. Muvozanatga kelirishning shartini nazarda tutish lozim, ya'ni o'sha razilat buzilishga yuz tutsa, fazilat maqomi bo'lgan o'rtacha darajaga yaqinlashadi. Mo'tadillik boshqa bir tarafga og'ib ketmasligi uchun uni tark etishga harakat qilish lozimki, toki u boshqa kasallikka aylanib ketmasin. Bunday turdagi davolash zo'rlik qo'llab davolash bo'lsa ham, tabib undan hayajonga tushmasligi va tab tortmasligi kerak. Tusiya ko'ra nafs — insondagi ichki kuch. Tusiya ruhni (nafsni) hayvoniy, g'azabiy, shahvoniy va aqliy qismlarga bo'ladi. Unga ko'ra, insonning ruhiy tarbiyasi — bu ushbu qismlarni aqliy ruhga bo'ysundirishdir. U "nafsni poklash"ni insonning chinakam kamolot sari yo'li deb biladi. Aql esa ruhiy boshqaruvchi hisoblanadi. Tusiya uchun aql — insonda eng oliy kuch. Aql hayvoniy nafs istaklarini boshqarishi kerak. Ruhiy muvozanat — aql, g'azab (quvvat) va shahvat o'rtasidagi me'yoriy muvozanatda yotadi. Ruhiy iltiroblarning ildizi insonning g'azab, hasad, shahvat, manmanlik kabi yomon sifatlarini nazorat qila olmasligidadir. Tusiya, masalan, hasadni ruhiy buzulish shakli, manmanlikni esa nafsning kasali deb talqin qiladi. Unga ko'ra, inson har bir yomon sifatga qarshi mashq bilan fazilatlarni rivojlantirishi kerak:

- G'azabga qarshi — sabr;
- Shahvatga qarshi — iffat (poklik);
- Baxillikka qarshi — saxovat;
- Kibrga qarshi — tavoze

Tusiya ruhiy kamolotni faqat ijtimoiy muhit bilan birga ko'radi: u kishilarning bir-biriga ta'sirini, oilaviy va ijtimoiy axloqni ham muhim deb hisoblaydi. Tusiyaning fikricha, inson o'zini tarbiyalashdan ilgari o'z tabiatini anglash, kuchli va zaif tomonlarini tan olish bilan boshlashi kerak. Har bir kasallikda fazilatlar va razilatlarni tushunish muhim bo'lib, undan qutulish unchalik qiyin bo'lmaydi. Ammo nazariy quvvatdan kelib chiqadigan kasalliklar har qancha marotaba soddaligi va tarkibiga ko'ra ko'p bo'lsa ham, lekin uning eng buzilgani xilma-xillik jihatidan uch turda bo'ladi: birinchisi hayrat, ikkinchisi jahl basit (oddiy jahl),





uchinchisi murakkab jahl². Birinchi turdagisi ortiqchalik qabilidan bo'ladi. Ikkinchisi yetarli e'tibor berilmagan jinsdan bo'ladi. Uchinchi turdagisi xatarliligi jihatidan hayratga sabab bo'ladi. Ammo hayrat avvalgi dard qo'zg'ashidan kelib chiqadi. Qiyin masalalarda nafsning ojizligi haqiqatni tahqiq qilishda bilinadi. Buzilgan narsani bartaraf qilish bu razilatning yo'li bo'lib, eng xatarli razilatlar shundaki, avval ro'y bergan voqeani ilgarigi voqealardan ekanligini eslatib, uni raf' va inkor qilish tadbirlarini isbot qilish lozimligi qiyin kechadi. Shuning uchun har bir masalada uni qisqacha bayon qilish malakasiga ega bo'lish kerakki, agar dard qo'zg'aganda hayron qolib, fasod joyni kesishga hukm qilib, ikki tarafdin birini saqlab qolishni o'ylashi kerak. Hunarga eng munosib kasb tabobat bo'lib, u inson badanini tozalash bilan chegaralanmaydi. Negaki, bu hunar ruhni yuksaltirish bilan ham shug'ullanadi. Demak, bu hunarda tabiatga tayanish lozim bo'lsa, tabibning tabobat hunarida tabiatga suyanganiga o'xshash holat vujudga keladi. Shu jihatdan ba'zi hukamolar bu hunarni ruhiy davolash deb ataydilar. Tabobat ikki qismdan iborat. Birinchisi, salomatlikni himoya qilish zarurati bo'lsa, ikkinchisi kasallik sababini bartaraf qilishdir. Shuningdek, bu ilm ham ikki fandan iborat. Birinchisi kasallikning zaruriyatligini himoya qilish bo'lsa, ikkinchisi razilatni urug'ini yo'qotishdir³. Ruh salomatligini saqlashda fazilatlarning himoyalaniishi chegaralangandir. Negaki, har bir ruh xayrli va fozildir. Fazilatga yetishish va saodatni qo'lga kiritish haqiqiy ilmlarni va ishonchli maorifni topishni zaruriyatga aylantiradi. Negaki, uning sohibi uchun bunday sharoitni saqlashda va joriy marosimlarga amal qilishda yordam beradi. Masalan, badan salomatligini saqlash qonuni tabobatda muloyimlik bilan iste'mol qilishni talab qiladi. Ruhni himoya qilish qonuni bir-biri bilan aloqaga kirishgan kishilar o'rtasida sodiqlikni va mazkur xususiyatlarga egalikni taqozo qiladi. Negaki, hech bir narsa ruhda hamsuhbat bilan bo'lgan suhbat va iliq muomalalardan ko'ra, ko'proq ta'sir qoldirmaydi. Shuningdek, bunday xayrli ishlar bilan qurollanmagan kishilar suhbatidan ehtiyot bo'lish, alalxusus, ahli sharr (yomon odamlar) va adashgan guruhlar bilan

² Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. –Б.155.

³Ўша асар – Б.130.





muomalada ularning majunlik bilan shuhrat topganliklarini hisobga olib, ulardan uzoqlashish choralarini ko'rmoq lozim. Negaki, bunday toifadan qochib qutulish sog'liqni saqlashning eng muhim va zaruriy shartidir⁴.

Asarda bundan tashqari insonning ruhiy holati uning jismoniy holatiga ham katta ta'sir qilishi haqida so'z boradi:

غضب حرکتی بود نفس را که مبدا آن شهوت انتقام بود، و این حرکت چون به عنف باشد، آتش خشم افروخته شود و خون دل در غلیان آید و دماغ و شریانات از دخانی مظلّم ممّتلّی شود.

Ya'ni, yuqorida: g'azabning iloji shunday harakatdirki, uning asosida shahvatdan o'ch olish yotadi va bu harakat zo'rlik ishlatish tarzida bo'lsa, ko'z chaqnab ketadi, qon g'alayonga keladi, dimog' va qon tomirlari shiddat bilan uradi⁵, deyilmoqda.

Nasiriddin Tusiyning fikriga ko'ra, bu olamda qabih ishlarni qilishdan ko'ra yomon ish yo'q. Va mana shunday qabihliklarning eng yomoni bu – xasaddir. Kindiyning aytishicha, hasad eng qabih kasalliklardan bo'lib, eng razil yovuzliklardandir. Shu sababdan hukamolar aytishganki, kimki o'z dushmaniga biror yomonlikning borib yetishini istasa, yomonlikni sevuvchi bo'lsin. Yomonlik oshig'i yovuz bo'ladi. Undan yovuzroq shunday kishi bo'ladiki, u yomonlikni dushmandan boshqalarga ham ravo ko'radi. Kimki biror xayrli ishni birovga borib yetishini xohlamasa, u o'sha kishiga yomonlikni istaydi⁶. Lekin haqiqatda shijoatli kishi shunday shaxsdirki, uning ehtiyotkorligidan qabih va iflos ishlarni bartaraf qilishdagi jiddujahdi ko'proq bo'ladi va hayot xavfidan ham qo'rqmaydi⁷. Bunday qabihliklardan halos bo'lishning yagona yo'li – bu doimiy tarzda inson o'z-o'zini tarbiyalab borishi va nafsini boshqara bilishidir. Inson olgan bilimlar esa uni bunday qabihliklardan to'sadi.

شجاع حقیقی کسی است از انجام امر قبیح بیشتر از پایان یافتن زندگی اش بیمناک است، بنابراین کشته شدن با عزت را به زندگی با ذلت ترجیح می دهد⁸.

⁴ Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. – Б.131.

⁵ خواجه نصیر الدین طوسی، اخلاق ناصری، به تصحیح مینوی و علیرضا حیدری، تهران: خوارزمی، ۱۳۶۹ ش، چ ۴، ص ۱۷۵

⁶ Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. – Б.194.

⁷ Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. – Б.95.

⁸ خواجه نصیر الدین طوسی، اخلاق ناصری، به تصحیح مینوی و علیرضا حیدری، تهران: خوارزمی، ۱۳۶۹ ش، چ ۴، ص ۱۲۷





Haqiqiy mard inson – qabih ishlar qilishdan ko‘ra ko‘proq o‘z hayoti poyoniga yetishidan qo‘rqadigan kimsadir. Shuning uchun u xo‘rlanib o‘lishdan ko‘ra sharaf bilan o‘lishni afzal ko‘radi.

هر که باک ندارد که مرگ او کی بر او افتاد، دل او در حوادث به قوت و ثابت بود⁹.

Ya’ni, har kim qachondir boshiga tushadigan o‘limdan qo‘rqmasa, uning yuragi har qanday voqealar qarshisida kuchli va qat’iyatli turadi. Yuqorida ta’kidlangani kabi inson qachonki, yaxshi xulqli, mard va ilmga chanqoq bo‘lsa, u hatto bevaqt va shubhasiz keluvchi o‘limdan qo‘rqmaydigan darajaga yetadi. Bu dunyoda faqatgina insondan qolgan ilm nuri uni boqiy qila oladi. Bu holat bizga mutafakkirlar hayotidan ma’lumdir. Ular bizga doimo ilm olish yo‘lida hamroh bo‘lib kelishadi. Xulosa qilib aytganda, Nasiriddin Tusiy fanni insonni kamolotga yetaklovchi asosiy mezon sifatida qaraydi. Olimning fikriga ko‘ra, nafsni tarbiyalash ilm-fan va ma’rifat jihatdan komillikka erishish uchun asosiy omil sifatida e’tiborga olinadi. Muallif buni ilmiy jihatdan asoslab beradi, ilmiy bo‘lish komillikka qadam deb aytadi. Tusiyning inson ruhiyatiga oid fikrlari zamonaviy psixologiyaga juda yaqin: masalan, Zigmund Freydning “id”, “ego”, “superego” tizimi bilan Tusiyning “hayvoniy”, “g‘azabiy”, “aqliy” qismlari bir-biriga o‘xshab ketadi. Tusiy tavsiya qilgan o‘zini tahlil qilish, sabrni o‘stirish, ichki muvozanatni saqlash — hozirgi zamon psixoterapiyasida qo‘llanadigan metodlarga juda yaqin hisoblanadi.

Foydalanilgan asarlar ro‘yxati:

1. Misir C. Mardanov, Ramiz M. Aslanov, Iramin N. Isaev “Moral and Spiritual Values in Works of Nasreddin Tusi”/ Proceedings IFTE-2020 – P.165.
2. Л. Рагими. Общая характеристика произведения «Ахлагинасири» (Насирова этика) хаджи Насреддина Туси. Вестник КазНПУ – 2012, Алматы. <http://www.allbest.ru/>
3. Қодиров М. Насриддин Тусийнинг «Ахлоқи Носирий» асари ва унинг таҳлили. – Т., 2014. – Б.66.

⁹ خواجه نصیر الدین طوسی، اخلاق محتشمی، به تصحیح محمد تقی دانش‌پژوه، تهران: دانشگاه تهران، ۱۳۶۱ ش، چ ۲، ص ۳۳۴





4. Мамедов Ф. Завещание Платона Аристотелю (Из книги Мухаммеда Насиреддина Туси «Ахлаги Насири») /<http://www.cultural.net.ru.doc>.
5. خواجه نصیر الدین طوسی، اخلاق ناصری، به تصحیح مینوی و علیرضا حیدری، تهران: / Xo'ja Nasiriddin Tusiy. Axloqi Nosiriy. Alirizo Haydariy tahriri asosida – Tehron: Xorazmiy, 1369 (hijriy). – 645b.

